

**RAQAMLI AKTIVLAR FUQAROVIIY-HUQUQIIY
MUNOSABATLARNING OBYEKTI SIFATIDA**

Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi Qibray tumani Adliya bo'limi xodimi

Yaxshi bilamizki, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning obyektlarini tartibga solishga bag'ishlangan huquqiy normalar majmuasi fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan hisoblanadi.¹ Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekti deb huquq subyektlari (davlat, fuqaro, yuridik shaxslar)ning harakatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, huquq va majburiyatlar nimani ustida kechayotgan bo'lsa, o'sha narsalarga aytiladi. Bunday obyektlarning turlari har xil va juda ham ko'p, ular kundalik ijtimoiy hayotning mazmunini tashkil qiladi, xususiyatlariga ko'ra, tegishli axloqiy va huquqiy qoidalar vositasida tartibga solinadi va himoya qilinadi. Ushbu obyektlarga intellektual mulk huquqlari, moddiy va nomoddiy ashyolar, pul, valyuta va hokazolar kirishi mumkin. Ushbu rejada raqamli aktivlar fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida tahlil qilib o'tiladi.

Fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga, ya'ni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lish mumkin. Professor I.B.Zokirovning fikricha, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan foydalanishi va tasarruf etishi mumkin bo'lgan, erkin suratda olish, sotish huquqi va o'dob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki ta'qiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va moddiy qiymatliklar, qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining obyekti bo'la oladi.² Raqamli aktivlar yuqoridagi rejada obyektlarning ikkalasiga ham tegishliligini bildirilgan, bundan tashqari, raqamli aktivlar fuqarolik huquqiy munosabatlarning subyektlari

¹ Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. -T, TDYuI. 2010. -B.291.

² Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. -T, TDYuI. 2006. -B.144.

tomonidan bimalol foydalanishi va tasarruf etishi mumkin, shuningdek, ularni erkin suratda olish va sotish huquqi ham mavjud. Shuning uchun ham raqamli aktivlarni ham bimalol fuqarolik huquqining obyektlari sifatida kiritib ketishimiz mumkin bo'ladi. Faqat bir narsani ta'kidlab ketish kerak, raqamli aktiv fuqarolik huquqi obyektiga aylanishi uchun odob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki ta'qiqlanmagan bo'lishi kerak. Aks holda tegishli raqamli aktiv tan olinmasligi va fuqarolik huquqi obyektlari qatoriga kiritilmasligi mumkin. Ayniqsa, kriptovalyutalar yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yin platformalaridagi aktivlar barcha davlatda ham ruxsat etilgan emas. Bunday vaziyatda ular bilan bog'liq bitimlar ijro etilayotgan mamlakatda ommaviy tartib qoidalariga zid deb topilib ijro etilmasligi mumkin. Shu narsani eslatib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasining MJTKsiga muvofiq, qimor yoki shunga o'xshash tavakkalchilikka bog'liq bo'lgan turli xildagi o'yinlarda qonunga zid tarzda qatnashish – o'sha o'yinlardagi barcha buyumlarni, shuningdek o'yin uchun tikilgan, shuningdek, o'yinda yutilgan pullar, ashyolar va boshqa buyumlar musodara qilinib, BHMning uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi, ayni huquqbuzarlik uchun dastlab ma'muriy jazo, keyin bir yil chida bu narsa yana sodir etilsa, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni yuqorida keltirilgan o'yinlarda ishtirok o'yinlarga jalb qilinsa, o'sha o'yinlardagi barcha buyumlarni, shuningdek o'yin uchun tikilgan, shuningdek, o'yinda yutilgan pullar, ashyolar va boshqa buyumlar musodara qilinib, BHMning besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga olib keladi. Kriptovalyuta bilan bog'liq bitimlar, agar u tegishli davlat qonunchiliga zid bo'lsa, yoki yuqoridagi misolga bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb hisoblangan bitimlar toifasiga

kiradi. Bitimni haqiqiy emas deb topish uchun shaxsning qasddan harakat qilganligi asos bo'ladi. Bunda nafaqat bevosita, balki bilvosita g'araz ham ko'zda tutiladi, ya'ni shaxs tegishli oqibatlarni istagan holda va bunday oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'ygan holda harakatni amalga oshiradi. Atayin huquq-tartibot yoki ahloq asoslariga zid maqsadda tuzilgan bitim avval boshidan o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bunday bitimning faqat bir tarafida g'arazli niyat bo'lgan holda u bitim bo'yicha olgan barcha narsalar ikkinchi tarafga qaytarilishi lozim, ikkinchi taraf bitim bajarilishi evaziga olgan yoki olishi lozim bo'lgan narsalar O'zbekiston Respublikasi daromadiga undirib olinadi. Atayin huquq-tartibot yoki ahloq asoslariga zid maqsadlarda tuzilgan bitimlar haqiqiy bo'lmagan bitimlarning eng "xavfli", eng zararli tarkibini tashkil qiladi. Ular bajarilgan taqdirda o'ta og'ir oqibatlarga sabab bo'ladigan o'z-o'zidan haqiqiy emas bitimlar toifasiga kiritiladi. Amaliyotda va nazariyada bunday bitimlar **antiijtimoiy** deb nomlanadi.³ Mazkur bitimning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi, birinchidan, maqsad: bitim huquq-tartibot yoki ahloqqa zid maqsadda tuziladi; ikkinchidan, bunday bitimni tuzgan taraflarning hech bo'lmaganda bittasida g'arazli niyat bo'ladi. Birinchidan, undan kelib chiqadiki, maqsadning o'zi bitimni haqiqiy bo'lmagan bitimlarning mazkur turiga kiritish uchun yetarlicha bo'lishi mumkin. Bitim ham mazmuni, ham shakliga ko'ra qonuniyga o'xshaydi, biroq maqsad uni o'ta xavfli haqiqiy bo'lmagan bitimga aylantiradi. Ikkinchidan, ravshanki, huquq-tartibot asoslari va ahloq asoslari qonun tomonidan bitim xavfliligini baholashning teng mezonlari sifatida ko'rib chiqiladi. Ya'ni bitimni haqiqiy emas deb topish uchun ushbu

³ Højer, Lars. "The anti-social contract: enmity and suspicion in northern Mongolia." Cambridge Anthropology (2004): 41-63.

asosga ko'ra u masalan, ahloqiy asoslarga qarshi maqsadda tuzilganining o'zi yetarlidir. Biroq bunday maqsad har doim ochiq-oydin ko'rinmaydi. Bu bitim uchun odatdagi yuridik maqsad emas. Gap taraflarning bitim bo'yicha huquqiy natijaga erishish uchun (boshqa vaziyatda butunlay qonuniy) jinoyat tarkibi yoki boshqa xavfli huquqbuzarlikni (ma'muriy nojo'ya ish yoki g'ayriqonuniy harakatni) tashkil qiluvchi xatti-harakatni qasddan sodir etishi to'g'risida bormoqda. Mazkur harakat bitimni bajarish uchun zarur o'sha "xavfli natija" bo'lganligi sababli bitim ataylab huquq-tartibot yoki ahloq asoslarga zid maqsadda amalga oshirilgan hisoblanadi. Maqsadning o'zi bitim singari hech qanday oqibatlarini keltirib chiqarmaydi. Oqibatlar bunday bitimni ijro etishga doir harakatlar bilan bog'lanadi. Shu tariqa gap jinoiy harakatlar, ma'muriy qilmishlar va boshqa qo'pol huquqbuzarliklar oqibatlariga ega fuqarolik-huquqiy tasniflash to'g'risida bormoqda.

Fuqarolik huquqlari obyektlari bir vaqtning o'zida fuqarolik majburiyatlari obyektlari bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlari obyektlari deganda, ularning nimaga yo'naltirilganligi, nima boisdan vujudga kelganligi va mavjud bo'lishligi tushuniladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatining tegishli predmetga yo'naltirilganligi, shuningdek, fuqarorlik huquqlari obyektini ham ifodalaydi. FKning fuqarolik huquqlari obyektlariga bag'ishlangan me'yorlarining mazmunini mana shu mushohadalar orqali idrok etish zarur. Sharhlanayotgan moddada fuqarolik huquqlari obyektlarining batafsil ro'yxati keltirilgan: mol-mulk, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari (intellektual mulk) va nomoddiy boyliklar. Axborot (98-m.), intellektual mulk (1031-m.) va nomoddiy boyliklar (97-m.) yuzasidan FKda umumlashtirilgan legal ta'riflar mavjud bo'lgani

holda, ancha keng tarqalgan va an'anaviy obyekt turlari bo'lmish mol-mulk, ishlar va xizmatlar to'g'risida ham buni aytish qiyin.

“Mol-mulk” tushunchasi fuqarolik huquqidan anchayin keng mazmun mohiyatga ega. Keng ma'noda u ashyolarni, mulkiy huquqlarni va mulkiy majburiyatlarni qamrab oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 558-II-sonli “Xususiy korxona to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida, FK yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda vorislik to'g'risidagi moddasida, FK meros asosida o'tayotgan mol-mulkka bag'ishlangan moddalarida xuddi shu ma'noda ishlatilgan. “Mol-mulk” tushunchasi ashyolarning va mulkiy huquqlarning yig'indisi sifatida asosan majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda (234-m. va b.). Ashyolar ma'nosida va ashyoviy-huquqiy xususiyatdagi mulkiy huquqlar ma'nosida bu tushuncha FKning fuqaroning mulkiy javobgarligi to'g'risidagi 25-moddasida, FKning yuridik shaxsning javobgarligi to'g'risidagi 48-moddasida, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar to'g'risidagi (FKning 13- bobi) moddalarda, shuningdek, FKning boshqa moddalarida ishlatiladi.

Raqamli aktivlar bugungi raqamli davrda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim obyektiga aylandi deb ayta olamiz. Kriptoalyutalar, raqamli tokenlar, raqamli vositalar, dasturiy ta'minot va boshqa nomoddiy tovarlarni o'z ichiga olgan ushbu aktivlar jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli aktivlarga fuqarolik qonunchiligida qanday munosabatda bo'lishini va ularga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq huquqiy oqibatlarini tushunish juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida raqamli aktivlarning asosiy jihatlaridan biri mulk huquqi tushunchasidir. Fuqarolik huquqida mulkchilik - bu

jismoniy shaxslarga o'z mulkidan foydalanish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo'yicha mutlaq huquq beruvchi asosiy huquqdir. Raqamli aktivlar bilan egalik qilish murakkab masala bo'lishi mumkin, chunki bu aktivlar virtual makonda mavjud va ko'pincha kriptografik kalitlar yoki raqamli hamyonlar tomonidan boshqariladi. Raqamli aktivlarga egalik huquqini o'rnatish aniq hujjatlarni, hisobni yuritishni va tegishli qonunchilik talablariga rioya qilishni talab qiladi.

Raqamli aktivlarni tranzaksiyasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yana bir muhim jihatini hisoblanadi. Jismoniy aktivlarda bo'lgani kabi, raqamli aktivlarni ham tomonlar o'rtasida sotib olish va sotish mumkin. Yangi Fuqalok Kodeksi loyihasida ham oldi-sotdi qoidalari raqamli aktivlarga nisbatan ham qo'llanilishi haqidagi gap bekorga qabul qilinmagan. Raqamli aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar rozilik, ko'rib chiqish va shartnoma majburiyatlari kabi qonuniy talablarga mos kelishi kerak. To'g'ridan-to'g'ri kodga yozilgan shartlar bilan o'z-o'zini bajaruvchi shartnomalar bo'lgan aqlli kontraktlar raqamli aktivlarni xavfsiz va shaffof tarzda uzatishni avtomatlashtirish va amalga oshirish uchun qulay vositaga hisoblanadi. Raqamli aktivlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslar va qoidalar raqamli iqtisodiyotning jadal tabiatiga moslashish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari iste'molchilarni himoya qilish, moliyaviy jinoyatlarning oldini olish va bozor barqarorligini ta'minlash uchun raqamli aktivlardan, xususan kriptovalyutalardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha qonunlar va ko'rsatmalarni amalga oshirdi. Ushbu qoidalarga rioya qilish raqamli aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar va korxonalar uchun yuridik xavf va majburiyatlardan qochish uchun juda muhimdir.

Xo'sh, o'zi aslida raqamli aktivlar fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekti bo'la oladimi? Adabiyotlarda bu borada turlicha qarashlar mavjud. Masalan, rus olimi E. A. Suxanov Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksida ko'rsatilgan barcha obyektlari turlari va ularning ro'yxatini yetarli deb hisoblaydi.⁴ L. Yu Vasilevskaya ham E. A. Suxanovning fikriga qo'shilgan holda, huquqlarni raqamlashtirish bilan birga mavjud bo'lgan yangi turdagi mulkiy huquqlarning paydo bo'lishiga olib kelmasligini aytib o'tadi.⁵

Raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyot ko'p sonli yangi narsalarni yaratdi, bularga misol qilib iqtisodiy ahamiyatga ega obyektlar, masalan, kriptovalyutalar, raqamli akkauntlar, domen nomi, elektron mahsulotlar (raqamli tovarlar), belgilar va ularning jihozlari, virtual o'yindagi aktivlar haqiqati va boshqalarni aytishimiz mumkin. Ushbu obyektlar umumiy ma'noda "raqamli aktivlar" deb ataladi. Ularnomoddiy (jismoniy) xususiyatga ega, elektron shaklda saqlanadi va muayyan qiymatga ega bo'ladi. L. Yu Vasilevskaya va E. A. Suxanovlarning fikrlari o'rinli bo'lishi mumkin, chunki yangi huquqlarning shakli o'zgaryapti xolos. Foto, video, audiolar intellektual mulk huquqi obyekti sifatida shundoq ham himoya qilinadi.

Yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksida raqamli pullar ashyoviy huquq nomli 2-bo'limga kiritilgan bo'lib, bus hu narsani bildiradiki, raqamli aktivlar fuqarolik huquqi obyektlarining turlaridan biriga kiritilgan. Ashyolar deganda, moddiy-jisimiy substansiyaga ega bo'lgan qattiq, suyuq, gazsimon holatdagi narsalar anglashiladi. Bu jonli va jonsiz tabiat obyektlaridir. Bunda shu ham e'tiborda

⁴ Российское гражданское право: учебное пособие в 2-х т. / отв. ред. Е. А. Суханов. М., 2011. Т. I. Общая част. Вещное право.

⁵ Василевская Л. Ю. Токен как новый объект гражданских прав: проблемы юридической квалификации цифрового права // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 5.

tutiladiki, bunday ashyolar o'zlashtirilgan va inson hamda jamiyat uchun ochiq va shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi jismoniy va yuridik shaxslarining fuqarolik huquqlari obyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ashyolarning asosiy vazifasi odamlarning va jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qanoatlantirishdan iborat. Fuqarolik huquqida pullar va qimmatli qog'ozlar o'zlarida mujassamlanadigan huquqlar vositasi sifatida ashyolarning alohida toifasini tashkil etadi. Ular o'ziga xos vosita vazifasini o'taydilar va odamlarning va jamiyatning oziq-ovqatga, uy-joyga, kiyimga, transportga, ishlab chiqarishni tashkil etish va amalga oshirishga va h.k. bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan muayyan moddiy boyliklarga erishish yo'lini ochib beradi. Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakk, yangi tahrirdagi fuqarolik Kodeksida shaxslar tasarrufida bo'la oladigan moddiy buyumlar ashyo hisoblanishi, qonunda o'z xususiyatlari va belgilariga ko'ra his etib bo'lmaydigan fuqarolik huquqi obyektlari hisoblanadigan nomoddiy obyektlar ham ashyo hisoblanishi belgilab qo'yilishi mumkinligi qayd etilgan. Bunda ham bir mavhumlik bo'lib, biz shu paytgacha jismlilik xususiyatiga ega bo'lgan ashyolarning tushunchasini biroz o'zgartiradi. Fikrimizcha, raqamli aktivlar ham fuqarolik huquqining mulkiy huquqlar obyektiga mansub hisoblanadi. Bunda ularni xuddi qimmatli qog'ozlar darajasi bilan bir xil deyish mumkin. Ya'ni, mulkni bevosita o'zining shakli bo'lmaydi, lekin uni tasdiqlovchi raqamli kodlar ketma-ketligi mavjud bo'ladi. FK 96-moddasining 1-qismida qimmatli qog'ozga mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi, ular taqdim etilgandagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'lgan, qat'iy belgilangan shaklga ega hujjat sifatida ta'rif berilgan. Binobarin, qimmatli qog'oz birinchidan, muayyan mulkiy huquqni

(muayyan miqdordagi pul to'lashni, muayyan mol-mulkni o'tkazib berishni talab etish huquqini) tasdiqlovchi hujjat ekanligi kelib chiqadi. Unda mana shu huquqlar va mol-mulk subyekti hamda majburiyatli shaxs to'g'risidagi axborot yozilgan bo'ladi. Ikkinchidan, gap aynan hujjat, ya'ni qat'iy shaklga va majburiy rekvizitlarga ega bo'lgan rasmiy yozuv to'g'risida ketyapti. Uchinchidan, bu hujjat unda ifoda etilgan mulkiy huquq bilan chambarchas bog'liq, chunki bu huquqni amalga oshirish yoki boshqa shaxsga o'tkazish faqat ana shu hujjatning o'zidan tegishli ravishda foydalanilgan holda bajarilishi mumkin. Boshqacha aytganda, bunday hujjatdan foydalanilishi yoki uni boshqa shaxsga o'tkazib berilishi unda ifodalangan huquqdan foydalanilishi yoki boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan baravardir (bu narsa xuddi raqamli aktivlarning ham tranzaksiyasi jarayoniga o'xshaydi). Hozirgi zamon mol-mulk muomalasida uning ishtirokchilarini qayd etishning elektron-hisoblash texnikasi qo'llaniladigan yangi shakllardan foydalanilmoqda. Bunda qimmatli qog'ozlar bevosita qog'oz vositasida chop etib chiqarilmaydi (emissiya), balki ularning egalari haqidagi, ana shu shaxslarga tegishli huquqlarning mazmuni to'g'risidagi tegishli yozuvlar EHMning xotirasiga buxgalteriya hisob varag'i shaklida kiritib qo'yiladi. Bu holat huquqlarni qayd etishning an'anaviy umumiy qoidalarini mana shu usullarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkinligi masalasini o'rta qo'ymoqda, chunki ular ko'pincha "behujjat" ("qog'ozsiz") qimmatli qog'ozlar deb atalmoqda. Avvalo shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bu muammo barcha turdagi qimmatli qog'ozlarga tegishli bo'lishi mumkin emas. Shubhasiz, mol-mulk muomalasiga oid huquqlarning bu tarzda qayd etilishini taqdim etuvchiga beriladigan qimmatli qog'ozlarga nisbatan ishlatib bo'lmaydi, chunki ular qog'ozda chop etilishdan

boshqa biron shaklda mavjud bo'la olmaydi. Bu usulni shuningdek, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlar, konosamentlar, varrantlar, garov xatlari kabi qimmatli qog'ozlarga nisbatan, hatto ular egasining nomi yozilgan shaklda bo'lsa ham qo'llab bo'lmaydi. Yuqorida aytilgan gaplarga beistisno tarzda aksiyalar va obligatsiyalarga tegishli bo'lib, ular o'z egasining nomi ko'rsatiladigan qat'iy xususiyatga ega bo'lsa-da, o'zlari tasdiqlayotgan huquqlarning «qog'ozsiz» shaklda qayd etilishiga yo'l qo'yib beradi. Ammo bu holatlarda gap oddiy qimmatli qog'ozlar to'g'risida va ularga mo'ljallangan qoidalar to'g'risida yuritilmaydi. Zero, EHM xotirasida saqlanib turgan “hisob varaqda”gi yozuvni uning egasi yo'qotishigina emas, hatto har qanday rasmiyatchilikka rioya etgan holda boshqa shaxsga o'tkazib berishi ham mumkin emas: bunda biron yozuv to'lig'icha o'chirib va yo'q qilib tashlanadi hamda boshqa yozuv bilan almashtiriladi. Shu sababli bunday “qimmatli qog'ozlar”ning “muomalasi” nihoyatda o'ziga xosdir. Holbuki, uning egasi amalda mulk egaligi huquqini (yoki boshqa ashyoviy huquqni) beruvchi biron bir ashyoga ega bo'lolmaydi va “hisob varaqdagi yozuv” bo'yicha hujjatli qimmatli qog'oz egasi kabi xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar (odatda aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari) qog'ozli shaklda ham, qog'ozsiz shaklda ham emissiya qilinmaydigan, balki egalarining huquqi maxsus reestrda mustahkamlab qo'yiladigan holatlarni “hujjatsiz qimmatli qog'ozlar” bilan adashtirish mumkin emas. Bunday holatlarda mulkiy huquq subyektlarida ularning huquqlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar yoki umuman bo'lmaydi, yoxud ularning vazifasini aksiyalarning sertifikatlar (bular qonunda belgilangan sharoitlarda maxsus qimmatli qog'ozlar deb e'tirof etiladi), yo bo'lmasa qimmatli

qog'oz deb sanalmaydigan "aksiyadorlar ro'yhatidan ko'chirmalar" bajaradi. Biroq bunday holatlar endilikda faqat qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan shartlar asosida yoki ularda qayd etilgan ruxsat asosida sodir bo'lishi mumkin.

Isroilda kriptovalyutalar mulk hisoblanadi.⁶ Yaponiyada ham an'anaviy valyutalarni tartibga soluvchi qonun xuddi shu tarzda kriptovalyutalarga nisbatan ham qo'llaniladi.⁷ Yevropa sudi xuddi shunday pozitsiyani ilgari surib, ular kriptovalyutalarni to'lov vositasi sifatida ko'rishsa⁸, Germaniyada ham kriptovalyutalarni to'lov vositasi sifatida ta'riflanadi. Kubadagi esa kriptovalyutalar virtual aktiv hisoblanadi.⁹ Qo'shma Shtatlarda, kriptovalyutalar bo'yicha haligacha yakdillik mavjud emas, AQSH moliya organlari kriptovalyuta bo'yicha turli nuqtai nazarga ega. Masalan, AQSh Federal zaxira kriptovalyutalarni soliqqa tortish uchun mulk obyekti sifatida ko'radi, AQSh G'aznachiligi esa ularni to'lov vositasi sifatida tasniflaydi.¹⁰

L. A. Novoselova tokenlarni huquqiy rejimiga ko'ra sertifikatlanmagan (tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan) qimmatli qog'ozlar sifatida tavsiflaydi.¹¹ A. I. Savelyev ham shunga o'xshash fikr bildirib, token – huquq obyektiga bo'lgan huquqning raqamli belgilanishi sifatida aytib uni "raqamli qimmatli qog'oz" deb

⁶ Сухова О. Правовое регулирование интеллектуальной собственности и инновационной деятельности // Сборник статей участников научно-методологического семинара [Olga Sukhova, Legal Regulation of Intellectual Property and Innovation, in Collection of Papers, Scientific and Methodological Seminar] 145 (2018).

⁷ Труды кафедры финансового права РГУП: сборник научных трудов / под ред. И. Цинделиани [Imeda Tsindeliiani (ed.), Proceedings of the Department of Financial Law, Russian State University of Justice: Collection of Scientific Papers] 346 (2020).

⁸ Bu yerda mavjud: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A62014CJ0264>

⁹ La Resolución 215 del Banco Central de Cuba [Resolution No. 215 of the Cuban Central Bank] (Feb. 16, 2024), available at <https://www.bc.gob.cu/noticia/banco-central-de-cuba-regula-el-uso-decriptomonedas-en-el-territorio-nacional/1273#bottom>

¹⁰ Ручкина Г., Андреева Л., Кирпичев А. Правовое регулирование экономической деятельности: учебник для вузов [Gulnara Ruchkina et al., Legal Regulation of Economic Activities: Textbook] 364 (2021)

¹¹ Новоселова Л. А. "Токенизация" объектов гражданского права // Хозяйство и право. 2017. № 12.

ataydi.¹² Bundan shu narsa anglashiladiki, token aktivdagi raqamli mulkni ifodalash uchun mo'ljallangan raqamli sohadagi qimmatli qog'ozlar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatda olimning fikriga qo'shilmasdan iloj yo'q, sababi, haqiqatdan ham, raqamli aktivlarni borligini ifodalovchi narsa bu token, xuddi patent bizga intellectual mulk huquqi egasiligimizni isbotlaganidek. Biroq, tokenni qimmatli qog'oz deb tan olish yondashuvi olimlar tomonidan tanqidga uchragan.¹³ Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy huquqni muhofaza qilish tizimlarida, xususan, AQShda tokenlar qonuniy ravishda qimmatli qog'ozlar sifatida tan olinmagan. SEC¹⁴ning pozitsiyasiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlarining tokenlarga nisbatan qo'llanilishi tokenlarning xususiyatiga bog'liq va har bir holat alohida qaror qabul qilinadi. Token qimmatli qog'oz ekanligini aniqlash uchun uchta asosiy elementni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak: 1. Mablag'larni investitsiya qilish faktining mavjudligi. 2. Investitsiya taqdiri shaxsning faoliyatiga yoki boshqa tomonlarning harakatlariga bog'liqligi. 3. Faoliyat natijasida foyda kutish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli aktivlarga egalik qilish tokenlar orqali tasdiqlanishi hisobga olib, uni ham fuqarolik huquqiy munosabatlarning mulkiy huquqlar turiga kiruvchi alohida obyekt deb ham, bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar sifatida avvaldan mavjud bo'lgan obyekt kategoriyasiga kirib ketishi ham mumkin. Bunda token qimmatli qog'oz bo'lishi uchun mablag'larni

¹² Савелев, Александр Иванович. "Некоторые риски токенизации и блокчейнизации гражданско-правовых отношений." Закон 2 (2018): 36-51.

¹³ Нагродская В. Б. Новые технологии (блокчейн / искусственный интеллект) на службе права: научно-методическое пособие / под ред. Л. А. Новоселовой. М., 2019.

¹⁴ Securities and Exchange Commission – AQShdagi qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlar birjalari, qimmatli qog'ozlar brokerlari va dilerlari va investitsiya fondlarini nazorat qiluvchi davlat organi.

investitsiya qilish faktining mavjudligi bo'lishi kerak, investitsiya taqdiri shaxsning faoliyatiga emas, balki boshqa tomonlarning harakatlariga bog'liq bo'lishi kerak va albatta faoliyat natijasida foyda kutish ehtimoli bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Darslik. -T, TDYuI. 2010. -B.291.
2. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. -T, TDYuI. 2006. -B.144.
3. Højer, Lars. "The anti-social contract: enmity and suspicion in northern Mongolia." Cambridge Anthropology (2004): 41-63.
4. Российское гражданское право: учебное пособие в 2-х т. / отв. ред. Е. А. Суханов. М., 2011. Т. I. Общая част. Вещное право.
5. Василевская Л. Ю. Токен как новый объект гражданских прав: проблемы юридической квалификatsii цифрового права // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 5.
6. Сухова О. Правовое регулирование интеллектуальной собственности и инновatsionной деятельности // Сборник статей участников научно-методологического семинара [Olga Sukhova, Legal Regulation of Intellectual Property and Innovation, in Collection of Papers, Scientific and Methodological Seminar] 145 (2018).
7. Труды кафедры финансового права РГУП: сборник научных трудов / под ред. И. Цинделиани [Imeda Tsindelian (ed.), Proceedings of the

Department of Financial Law, Russian State University of Justice: Collection of Scientific Papers] 346 (2020).

8. La Resolución 215 del Banco Central de Cuba [Resolution No. 215 of the Cuban Central Bank] (Feb. 16, 2024), available at <https://www.bc.gob.cu/noticia/banco-central-de-cuba-regula-el-uso-decriptomonedas-en-el-territorio-nacional/1273#bottom>.

9. Ручкина Г., Андреева Л., Кирпичев А. Правовое регулирование экономической деятельности: учебник для вузов [Gulnara Ruchkina et al., Legal Regulation of Economic Activities: Textbook] 364 (2021)

10. Новоселова Л. А. “Токенизация” объектов гражданского права // Хозяйство и право. 2017. № 12.

11. Нагородская В. Б. Новые технологии (блокчейн / искусственный интеллект) на службе права: научно-методическое пособие / под ред. Л. А. Новоселовой. М., 2019.